

Umumhuquqiy tezaurus masalalari

Muyassarxon Baxriddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti, Katta o‘qituvchisi

muyassar1971@mail.ru

Annotatsiya: Umumhuquqiy tezaurus tuzish masalasini o‘rtaga qo‘yishdan oldin yuridik terminologiyadagi ayrim muammolar xususida to‘xtab o‘tish lozim deb topildi.

Huquqshunoslikka doir lug‘atlar va qomuslar, ularning holati haqida yuqorida batafsil to‘xtab o‘tildi. Endi tadqiqot obektimizdagи ayrim masalalar yuzasidan fikrmulohazalar bildirib o‘tishning zarurligi ayon bo‘ldi. Ushbu maqolada umumhuquqiy tezaurus masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: umumhuquqiy, tezaurus

Umumhuquqiy tezaurus tuzish masalasini o‘rtaga qo‘yishdan oldin yuridik terminologiyadagi ayrim muammolar xususida to‘xtab o‘tish lozim deb topildi.

Huquqshunoslikka doir lug‘atlar va qomuslar, ularning holati haqida yuqorida batafsil to‘xtab o‘tildi. Endi tadqiqot obektimizdagи ayrim masalalar yuzasidan fikrmulohazalar bildirib o‘tishning zarurligi ayon bo‘ldi.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, ayniqsa, Istiqloldan keyin Respublikamizda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar, yo‘riqnomalar, eng muhimi, va boshqa rasmiy hujjatlarda bir meyorga keltirilgan, tartibga solingan, normalashtirilgan yuridik terminlar asosida dunyoga keldi. Bu ijobjiy holatdir. Biroq ayrim manbalarda shunday terminlardan ham foydalanilganki, ular terminologik talablarga to‘la javob bera olmayotir. Dalillarga murojaat qilamiz.

Yuridik termin birligi qoidasiga, ayniqsa, bir meyoriy hujjatlar doirasida ko‘proq amal qilinmog‘i lozim, aks holda qonunchilik texnikasi buziladi, qonun mohiyati aniq tushunilmaydi. Masalan:

Shartli hukm qilish - shartli jazo belgilash;

Shartli ozod qilish - shartli ravishda ozod qilish;

Murakkab aybli jinoyat - qasddan sodir etilgan jinoyat;

Jazo tayinlash - jazo belgilash;

Yuridik shaxsning nochorligi - yuridik shaxsning bankrotligi;

Elchi - vakil – konsul;

Mehnatga qobiliyatsizlik - mehnatga yaroqsizlik - mehnatga layoqatsizlik

kabilar fikrimizning dalilidir.

«Auksion» termini hozirgi kunda «Kimoshdi savdosi» deb ham yuritilmogda (ya’ni «auksion»ning sinonimi «kimoshdi»). Fuqarolik kodeksining 379-moddasida esa shunday deyiladi: «Kim oshdi savdosi auksion yoki tanlov shaklida o’tkaziladi» (160-b.). Demak, «auksion» va «kim oshdi» aynan bir xil tushuncha emas. «Auksion «kim oshdi»ning bir ko‘rinishi ekan.

«Ish boshqaruvchi»sining «ish yurituvchi» ma’nosida berilishi ham terminlar birligiga e’tibor bermaslik natijasidir. «Ish boshqaruvchi» - («upravlyayushiy delami») oliv ma’lumotga ega bo‘lgan shaxs bo‘lib, yuqori lavozim egasidir. «Ish yurituvchi» («deloproizvoditel») esa o‘rta ma’lumotli shaxs ham bo‘lishi mumkin va u, asosan, idoralarda texnik ishlarni bajaradi. «Ish yurituvchi»ning vazifasi texnik kotib(a) funksiyasiga o‘xshashdir¹.

Ilmiy jihatdan asosli andozalangan xalqaro siyosiy-huquqiy terminlarni tilimizda shakllantirishda milliy xususiyatlarimizning o‘ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur. Hozirgi kunda agremanni - rozilik, zapasni - zahira, povestkani - chaqiruv qog‘ozi, konsensusni - kelishuv, pettsiyani - arznama, konsulstvoni - konsulxona, kapitalni - sarmoya shaklida ishlatish fikrimizning dalilidir. Mazkur o‘girishlar maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda tilimizning milliy jihatlari e’tiborga olingan. Bu ijobiy hol, albatta. Ammo ayrim terminlar standart talabiga javob bermayapti, ular noto‘g‘ri ishlatilib kelinmoqda.

Masalan: kongress - anjuman
konferensiya - anjuman

Lekin «Kongress - muhim siyosiy, ilmiy va boshqa masalalar yuzasidan o‘tkaziladigan xalqaro sezd, kengash» bo‘lsa, «Konferensiya - davlatlar, partiya, ijtimoiy, ilmiy va sh.k. tashkilotlar vakillarining biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun chaqirilgan majlisi, kengashi»dir².

Demak, kongress va konferensiya o‘rtasida farq bor.

Rus tilidagi kontrakt, dogovor, soglasheniye, sdelka terminlari ham o‘zbek tilida shartnoma, bitim, kelishuv, biylashuv tarzida aralash ishlatilmogda:

dogovor - shartnoma, bitim;
kontrakt - bitim, shartnoma, kelishuv;
soglasheniye - bitim, shartnoma;

¹ Г.Гулямова. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараккиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.

² Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I том. - М.: Рус тили, 1981. – 395, 397-бетлар.

sdelka - bitim, kelishuv, biylashuv³:

dogovor – shartnoma;

kontrakt – shartnoma;

soglasheniye- bitim, shartnoma, kelishuv;

sdelka - bitim, kelishuv⁴.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeい ortdi. Davlat, ta’lim, tarbiya, ish yuritish, madaniy-ma’rifiy, maorif ishlari moneliksiz o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘ldi; qonunlar o‘zbek tilida yozilib, qonunchiligimiz milliy tus oldi. Qonun tili va uslubi milliy lashdi, ko‘plab o‘zbekcha huquqiy atamalar, iboralar va terminlar paydo bo‘la boshladi: davlatchilik, qonunchilik, vakillik, bandlik, hokimlik, sarmoya, mulkdor va boshqalar. Ko‘rinadiki, qonun tili yuridik terminlogiyasiga alohida e’tibor berilmoqda.

Germaniya Federativ Respublikasi mustaqil davlat sifatida dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri ekanligi sababli bunday xolat yuz bermaganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek ilmiy terminologiyasining milliy lashuvi respublikamizning mustaqillikka erishishi va kelajagi buyuk davlat sifatida tez va jadal rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun o‘zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti har jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi⁵.

Nemis xuquqiy tizimida fan va texnika rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan xuquqiy terminlar xisobiga boyib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek yuridik terminologiyasidagi bir xillik tamoyillari, terminlarni andozalash, yuridik terminologiyani muayyan tizim sifatida o‘rganish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish o‘zbek tilining umumhuquqiy tezaurusini yaratish imkonini beradi.

Nemis tili yuridik terminologiyasi nemis tilshunos olimi Kobler tomonidan asos solinganligi va bir necha nomdagи yuridik terminlar lug‘atlari nashr etilganligi sababli ularni ilmiy-nazariy jihatdan tasniflash qiyinchilik tug‘dirmasligini nemis tilshunos olimlari tomonidan e’tirof etilgan.

Tezaurus biror tilning mukammal lug‘ati bo‘lib, terminologiya asosini tashkil qiladi. Tezaurus – so‘z va terminning to‘liq mazmuniy ma’lumotini beruvchi lug‘aviy

³ Юридик атамалар ва иборалар лугати. - Т.: Адолат, 1993.

⁴ Ахмедов Ф., Бектемиров Х. Русча-ўзбекча юридик атамалар лугати. - Т.: Адолат, 2002.

⁵ Қаранг: Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси Қонунларининг тили: Филол. фанлари номз.

... дисс. автореф. - Т., 1995. - 12-бет.

birlik, muayyan tushunchaning interlisoniy va ekstralisoniy aloqalari tizimidir.

Keyingi vaqlarda ilmiy sohaga tizimli yondashuv har qanday nutqiy obektlarning uzviy belgisi sifatida tan olinmoqda. Xuddi shunday, terminologiyada sistemalilik alohida til elementlari munosabatlari sistemaning mantiqiy to‘g‘riligini anglatadi. Shu bois, qonunchilik tili uchun umumhuquqiy tezaurususning yuridik terminlari asosiy omillardan hisoblanadi. Chunki qonunchilik sohasidagi terminlar erkin leksemalar yig‘indisi emas, balki yurisprudensiyadagi ichki bog‘liqliknini ifodalovchi terminologik tizimni tashkil etadi. Shuning uchun qonunchilikda ham yuridik terminlar o‘rtasidagi munosabatlarni umumhuquqiy tezaurus aks ettiradi. Tezaurus qonunchilikka muayyan talablar qo‘yadi va terminologik qonun-qoidalarga qat’iy rioya qilishni talab qilishga undaydi. YA’ni umumhuquqiy tezaurus tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqliknini ifodalab, tushunchani aniq ta’riflashga, qarama-qarshi ma’nolarni keltirib chiqarmaslikka da’vat etadi. Shu bois, terminlarning aniqligi, bir ma’noliligi barqarorligiga erishiladi. Umumhuquqiy tezaurus orqali terminning qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yagona ma’nosи belgilanadi⁶.

Tezaurusda huquqiy terminlarga xos bo‘lgan umumjihatlar (ma’no qirralari va semalari) to‘liq aks etadi. Shuning uchun tezaurus semantikasi yuridik terminlar orqali ifodalanadigan asosiy (umumiste’mol) ma’noga teng bo‘ladi: tezaurus ma’nosи yurisprudensiya uchun dominanta ma’no sanaladi. Binobarin, tezaurusning mohiyati terminlarga xos barcha qirralarni, jihatlarni, xususiyatlarni, ma’no ottenka (vazifa - vazifadoshlikni, ma’no - ma’nodoshlikni, sema - sememalik va b.) larini umumlashtirib sharhlash orqali aniqlanadi. Fikrimizning dalili sifatida «amnistiya» terminining o‘zbek tilidagi izohini olib ko‘raylik.

Huquqshunoslikning turli sohalarida ishlatib kelinayotgan quyidagi terminlarni ko‘rib chiqamiz: ish staji, ishlab chiqarish staji, mehnat staji. Bu terminlar aslida bitta tushunchani ifodalaydi. Endi ularning dominantini aniqlash lozim bo‘ladi. Bizningcha, bu terminlarning dominanti mehnat staji hisoblanadi. Quyida berilgan nemis tilidagi terminlarning dominanti ham mehnat staji (Die Dienstzeit) hisoblanadi. Die Dienstzeit, das Dienstalter, die Arbeitspraxis (mehnat staji, mehnat amaliyoti, uzoq mehnat tajribasiga ega shaxs)

Afsuski, hali o‘zbek yuridik terminologiyasining puxta umumhuquqiy tezaurusi yaratilgan emas. Shu sababli qonunchilik terminologiyasida xilma-xilliklar tobora avj olib ketmoqda. Bir ma’no anglatuvchi tushunchalar turli ko‘rinishda berilmoqda:

⁶Г.Гулямова.Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.

(mehnatga qobiliyatsizlik - mehnatga yaroqsizlik - mehnatga layoqatsizlik; meyoriy hujjat - meyoriy qonun - meyoriy akt va boshqalar.).

Nemis tilining qonunchilik terminologiyasida mehnatga qobiliyatsizlik iborasida faqatgina birgina Arbeitsunfähigkeit terminini uchratishimiz mumkin

Nemis tilining qonunchilik terminologiyasida meyoriy qonun ma'nosini ifodalovchirechtmäßig (qonuniy), rechtsgültig (qonuniy), rechtskräftig(qonuniy), Rechtswirksamkeit (qonuniy) kabi terminlarni qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.Гулямова. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври таракқиёти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2005.

2. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. I том. - М.: Рус тили, 1981. – 395, 397-бетлар.

3. Юридик атамалар ва иборалар лугати. - Т.: Адолат, 1993.

4. Аҳмедов F., Бектемиров X. Русча-ўзбекча юридик атамалар лугати. - Т.: Адолат, 2002.

5. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси Қонунларининг тили: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. - Т., 1995. - 12-бет.